



**XX ASR O‘ZBEK TANQIDCHILIGI TARAQQIYOTIDA OZOD
SHARAFIDDINOVNING O‘RNI**

Jahonova Malika Ibodullo qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Jurnalistika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada buyuk tanqidchi va iste’dodli ijodkor Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek adibning tanqidchilikka doir maqolalari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ozod Sharafiddinov, tanqidchi, munaqqid, tanqidiy maqola, she’riyat, badiiy ijod.

O‘zbek adabiy tanqidchiligiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan iste’dodli adib, buyuk munaqqidlarimizdan biri Ozod Sharafiddinovdir. U adabiyotshunos va adabiy tanqidchi olim sifatida o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida milliy va jahon adabiyoti an’alarini uyg’un qabul qilish tamoyillarini boshlab bergan. Ozod Sharafiddinov poeziya muammolari bilan shug’ullangan, o‘zbek she’riyati va uning holati haqida adabiy-tanqidiy maqolalar yozgan. Uning “Zamon. Qalb. Poeziya” (1962), “Iste’dod jilolari” (1976), “Birinci mo’jiza” (1979), “Talang – xalq mulki” (1979), “Xayot bilan hamnafas” (1983), “Go’zallik izlab” (1985) kabi asarlarida o‘zbek she’riyati, nasri va tanqidchiligining muhim muammolari yoritilgan. Shuningdek, olimning “Istiqlol fidoyilari”, “Cho’lponni anglash” (1993), “Mohiyat va muhabbat” (1994), “Sardaftar sahifalari” (1999), “Ma’naviy kamolot yo’llarida” (2001), “Dovondagi o’ylar” (2004) kabi kitoblari ham mavjud bo’lib, bu asarlarini o’qish orqali adibning uslubi va is’tedodiga yuqori baho bera olamiz. Olimning asarlari orasida sarmahsulligi va mazmundorligi bilan ajralib turadigan asari “Ijodni anglash baxti” (2004) nomli kitobidir. Bu kitob adib ijodining eng cho’qqisi desak mubolag’a bo’lmaydi. Bundan tashqari adabiyotshunos olim “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” o’quv dasturi, “XX asr o‘zbek adabiyoti” (1999) darsligi muallifi hamdir. Ozod Sharafiddinov o‘zbek



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

adabiyotining Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsdud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya singari yorqin namoyondalari haqida adabiy portretlar yaratib, tanqidda portret janrini rivojlantirdi. Ozod Sharafiddinov adabiyotda salmoqli va takrorlanmas ijod qilgan. U o'zbek she'riyati va unga oid ham tanqidiy ham amaliy maqolalar yozgan. Uning she'rlarining zamirida chuqur ma'no, o'ziga xoslik va uslub mujassam. Adib ijodida so'z va jummalarning uyg'unligi, ulardan to'g'ri foydalanish, oddiy so'zlarda chuqur ma'no yaratish singari mahoratni guvohi bo'lish shubhasiz. Adabiyotshunos, kuchli so'z ustasi bo'lgan va u deyarli adabiyotning hamma yo'nalishlariga o'z hissasini qo'shgan. Shoir butun umri davomida Vatanga sadoqat va xalqqa mehr-muhabbat tuyg'usi bilan yashagan. Adibning qaysi bir she'ri yoki asari bilan tanishmaylik uning barchasida vatanga ravnaqi, yoshlar kelajagi uchun bir qancha qiyinchiliklar va mashaqqatlarni bosib o'tganligiga guvoh bo'lamiz. Shoir o'z umrini adabiyotga, ilm- fanga bag'ishlagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Misol tariqasida uning "Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim shu kitoblar edi" fikrlarini keltirish mumkin. Shoir asarlarini, kitoblarini doimo asrab –avaylashga yosh avlodni targ'ib qilgan. Ozod Sharafiddinov asarlarini o'qigan har bir insonda Vatanga bo'lgan sadoqat, xalqiga bo'lgan mehr- muhabbat yanada oshadi desak o'rinli bo'ladi. Buyuk tanqidchi adabiyotimiz va mulohazamiz taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan bo'lib buyuk va mangu siymo sifatida tan olingan. Ayniqsa, uning tanqidiy va tahliliy fikrlashi ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lgan. Adibning tanqidchilikka oid asarlari anchagina bo'lib, ularning har birida o'ziga xos uslub va yo'nalishdan foydalangan. Shu o'rinda adibning "Tanqidchilik kasbi haqida" nomli maqolasiga to'xtalib o'tsak. Ozod Sharafiddinov ushbu maqolasida kun sayin adabiyotimizga yosh ijodkorlarning kirib kelishidan mamnun bo'layotgani haqida to'xtalib o'tadi. Lekin tanqidchilikda hali qilinadigan ishlar talaygina ekanligi ta'kidlaydi. Tanqidchilikka yangi kirib kelgan, yosh ijodkorlarni maqolasini o'qisak ulardan ba'zi hollarda ranjishimiz mumkinligi, ular maqola yozayotgan paytda adib yoki asar haqida ma'lumotga ega bo'lmay balki hayoliga kelgan narsalarni qalamga olishi haqida maqolada aytib o'tilgan. Shuningdek adib maqolada "Mening nazarimda, adabiy tanqid lirika va drama, qissa va roman kabi adabiyotning, so'z san'atining teng huquqli



janrlaridan biridir. Shoirlik yoki romannavislikni da'vo qiluvchi har qanday odam ham shoir yohud romannavis bo'lavermaganidek, taqriz yoki maqola e'lon qilgan har qanday odamni ham tanqidchi deb e'tirof etish joiz bo'lmasa kerak" degan fikrlar haqida to'xtalib o'tgan. Shoir 20 yildan beri tanqidchilik bilan shug'ullanib bir haqiqatga ishondi. Shoir, drammaturg, nosir bo'lish uchun is'tedod, talant kerak bo'lganidek, tanqidchi bo'lish uchun ham iste'dod va talant shunchalik zarur. Adib tanqidchilik talanti uchun unsuridan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. Adabiyotdagi go'zallikni, g'oyaviy va badiiy boylikni hissa qila bilishidir. Tanqidchi bo'laman degan insonda estetik tuyg'u o'tkir bo'lishi, asardagi go'zallikni ko'ra olishi kerak. Tanqidchi emotsional tuyg'ulari boy odam bo'lmasa, u san'atning go'zalligini tushuna olmaydi.

2. Fikrlash qobiliyatidir. Tanqidchi o'qigan asarini chuqur tahlil qilishi, asardagi voqea hodisalarni, xarakterlarni hayot hodisalari bilan, hayotdagi jonli odamlar bilan taqqoslay bilishi va bu taqqoslardan jamiyat hayoti uchun zarur hamda foydali xulosalar, umumlashmalar chiqara olishi kerak.

3. So'z san'atiga nisbatan ehtirosli, otashin muhabbatni aytish mumkin. Tanqidchi bo'lishni istagan odam adabiyotni butun vujudi bilan sevishi, unga sidqidildan, fidoyilik bilan xizmat qilishi lozim. Chinakam so'z san'at i tanqidchi uchun olamdagi eng muqaddas, eng mo'tabar, eng qutlug' narsa bo'lmog'i darkor. Tanqidchilik iste'dodining ozuqasi, qanoati bilimdir. Ba'zi odamlar adabiyot yoki tanqidchilikning mehnati matematika, fizikaning mehnatidan osonroq deydi. Lekin, Ozod Sharafiddinov bunday fikr to'g'ri emasligini, uning o'ziga yarasha mashaqqati borligini aytib o'tadi. Tanqidchining kuchi, tanqidchining qadri uning adabiy jarayonga ko'rsatuvchi ta'siri bilan belgilanadi. Adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatish uchun tanqidchi dalilli fikrlar, muammolar, mulohazalarni o'rta tashlashi kerak. Tanqidchi uchun zarur bo'lgan sifatlardan biri halollikdir. Adib shuningdek maqolada tanqidchi asarning nuqsonini topishdan ko'ra ko'proq undagi mavjud va yashiringan go'zalliklarni topib ko'rsatib bera olishi lozimligi haqidagi fikrlarga ham to'xtalib o'tgan.

Mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha ijodkorlar singari adibga ham cheksiz imkoniyatlar eshik ochdi. Adib birinchi galda Vatan yo'lida shahid ketgan, qatag'onga uchragan adiblarning asarlarini xalqqa yoyishni o'z oldiga maqsad qilib



oldi. Ayniqsa, Cho'lpon ijodi shoir diqqat e'tiborida bo'ldi. 1991-yilda Cho'lpon hayoti va ijodiga doir "Cho'lpon" nomli risolasi yozdi. Munaqqid ko'plab maqola va asarlarida Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlarini va faoliyatini keng tahlil ostiga oladi.

Yozuvchining "Cho'lponni anglash" risolasi ham uning ijodini yanada boyitgan. Munaqqid Cho'lpon hayotini va ijodini o'tkir sinchkovlik bilan kuchli tahlil qilib shunday xulosaga keladi: "Cho'lponni anglash- so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho'lponni anglash- uning buyuk umumbashariy g'oyalarini, uning yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olishdir. Cho'lponni anglash- Vatanni, ko'hna Turkistonimizni Cho'lpon ko'zi bilan ko'rib, Cho'lpon yuragi bilan seva bilmoqdir. Bir so'z bilan aytganda, Cho'lpon har bir adabiyot muhlisining yurak mulkiga aylanishi shart. Buning uchun esa, Cho'lpon merosini yangi tafakkur asosida bag'rikenglik bilan tadqiq etmoq lozim".

Ozod Sharafiddinov adabiyot sohasida tanqidiy maqola va asarlar yozishdan tashqari, tarjima san'atida ham sermahsul ijod qilgan. Adib tarjima san'atiga tanqidchilik konsepsiyasini olib kirgan. L.Tolstoyning "Iqrornoma", P.Koelonning "Kimyogar", A.Sevelaning "To'xtating samolyotni, tushib qolaman" asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharafiddinovning yurtimiz va xalqimiz oldidagi xizmatlari beqiyosdir. Uning adabiyotning har jabhasida sermahsul ijod qilib, biz yosh avlodga tengsiz va tunganmas xazina qoldirgan desak o'rinlidir. Munaqqidning kitoblari bugungi kunda kitobxonlarimizning kutubxonalaridan joy olib ulgurdi. Adibning asarlarini o'qigan har bir inson qalbida o'zgacha bir iliqlik va muhabbat paydo bo'ladi. Olimning asarlari va maqolalarini o'qish orqali ko'plab adabiyotimizga oid haqiqatlar va dalilli fikrlardan xabardor bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Antalogiya. O'zbek adabiy tanqidi tarixiy. – Toshkent: "Turon-Iqbol". – 2011.
2. Abdug'afurov A. Iste'dod va e'tiqod. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2000.
3. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho'lpon NMIU. – 2012.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

-
4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, – 2000.
 5. Arboblar.uz.
 6. Ziyouz.com.